

Turdiyev Madiyor Mamamazarovich

Alfraganus universiteti o'qituvchisi

Ergashova Odina Xusniddinovna

Alfraganus universiteti talabasi,

Email: turdiyevmadiyor@gmail.com

odina130504@gmail.com

Annotatsiya: *Bugungi kunda O'zbekistonda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida keng ko'lamli islohatlar amalga oshirilmogda va ushbu islohotlarning asosiy maqsadi mamlakat iqtisodiyotini yanada rivojlantirish va o'zbek xalqining turmush farovonligini oshirish ko'rsatkichidir. Maqolada mamlakatda gastronomik turizmini rivojlantirish, gastronomik turizmning o'рни va ahamiyati va ularni rivojlantirish yo'nalishlari va mintaqalarda turistik resurslardan samarali foydalanish usullari ko'rsatiladi.*

Kalit so'zlar: *Turizm, Gastronomik turizm, Agroturizm, Samarqand shahri, bozor iqtisodiyoti.*

Аннотация: *Сегодня в Узбекистане осуществляются широкомасштабные реформы во всех сферах общественной жизни, и основной целью этих реформ является дальнейшее развитие экономики страны и повышение уровня жизни узбекского народа. В статье показаны развитие гастрономического туризма в стране, роль и значение гастрономического туризма, направления их развития, методы эффективного использования туристских ресурсов в регионах.*

Ключевые слова: *туризм, гастрономический туризм, агротуризм, город Самарканд, рыночная экономика.*

Abstract: *Today, large-scale reforms are being implemented in all spheres of social life in Uzbekistan, and the main goal of these reforms is to further develop the country's economy and increase the standard of living of the Uzbek people. The article shows the development of gastronomic tourism in the country, the role and importance of gastronomic tourism, directions of their development, and methods of effective use of tourist resources in the regions.*

Key words: *Tourism, Gastronomic tourism, Agrotourism, Samarkand city, market economy.*

Kirish: Bizning davlat hozirda tez rivojlanib boroyotgan davlatlar sarasiga kiradi. Hozirgi kunda dunyo juda ham tez rivojlanmogda. Bugungi kunda yurtimizda ijtimoiy hayotini yaxshilash uchun keng ko'lamli islohotlar olib borilmogda. Islohotlarning asosiy maqsadi yurtimizning iqtisodiyotini yanada oshirish va o'zbek xalqining faravon yashashi uchun barcha shart sharoitlarni yaratish uchun harakat qilmogda. Bizning yurtimizda Turizm sohasini rivojlanishi va o'sishga qaratilgan e'tibor keying yillarda yurtimizning iqtisodiy o'sishiga o'z hissasini qo'shgan. Hozirgi kunda iqtisodiyotimizga

yuqori daromad keltiradigan va o'zligimizni, milliyligimizni ko'rsatib turadigan soha bu Gastronomik turizm sohasini rivojlantirishdir.

Bu sohani rivojlantirish orqali biz sayyohlarga milliy an'anaviy taomlarimizni, tayyorlash jarayonidan tortib dasturxonga tortilishigacha, ovqatlanish madaniyatimizni, umummilliy madaniyatimizni ko'rsatishimiz mumkin.

1.1 Gastronomik turizm, turlari, maqsadi va vazifalari.

Gastronomik turizm – bu bir mamlakatning ma'daniyatini va umuman boshqa mamlakatda boshqa biror joyda takrorlanmaydigan betakror taomlari tatib ko'rishga qaratilgan tur hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda gastronomiya turizmining rivojlanishi «milliy iqtisodiyotga ijobiy ta'siri, bandlikni ta'minlash va madaniy meros sifatida har tomonlama tavsif» sifatida Jaxon turizm tashkiloti (JTT) ning doimiy nazoratida hisoblanadi.

Gastronomik turizm sohasi turlari 2 turga bo'linadi. Qishloq va shahar gastronomik turizmlariga. Qishloq gastronomik turizmida turistlar sayohat qilinaotgan davlatning ekologik toza mahsulotlarini yig'ib olish va qadoqlash jarayonini o'z ko'zi bilan ko'rish va ta'tib ko'rish uchun borishadi .Shahar gastronomik turizmi esa mahalliy mahsulotlarni qayta ishlaydigan va ishlab chiqaradigan korxonalar milliy taom tayyorlaydigan ovqatlanish shahobchalariga va oziq ovqat do'konlariga boshqa obyektlarga tashrif buyurib ularni o'rganish kiradi.

Gastronomik turlarning maqsadi bir mamlakatning oshxona xususiyatlari bilan tanishib , bir necha tansiq taomlaridan tatib ko'rishdan iborat emas, balki ularning asrlar davomida saqlanib kelayotgan urf-odatlarini o'zida ko'rsata olgan (jamlagan) taomlaridan bahra olish va ularning tayyorlanishi bilan tanishishdan iborat.

1.2 O'zbekistonda gastronomik turizmning rivojlanishi

O'zbekistonda turizmni rivojlantirish turistlarga xizmat ko'rsatish tizimini kengaytirish va ular uchun barcha sharoitlarni yaratish maqsadida yangi turistik majmualar, mehmonxonalar, kempinglar va restoranlar, barlar qurilishi uchun katta mablag' ajratilmoqda. Masalan: Samarqand shahrida Xalqaro gastronomik festivalni olaylik, Ikki kun mobaynida tashkil etiladigan festival mehmonlar mazali taomlar va bayram tomoshalaridan bahramand bo'lishdi. Shuningdek, festival doirasida umumiy ovqatlanish korxonalari va oshpazlar o'rtasida o'ziga xos tanlov ham o'tkaziladi.

Samarqandda turizm salohiyatini yana-da rivojlantirish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, bu boradagi ishlar natijasida shahardagi Orzu Mahmudov ko'chasi yaqin vaqt oralig'ida butunlay yangi qiyofaga ega bo'lgan.

Xulosa

O'zbekistonda Gastronomik turizmni rivojlantirish uchun turistlarga barcha sharoitlarni yaratish maqsadida yangi turistik majmualar, mehmonxonalar, kempinglar va restoranlar, barlar qurilishi uchun katta mablag' ajratilmoqda. Bunday suratda turizmni rivojlanitirish albatta umumiy ovqatlanishni ham rivojlantirishni taqazo etadi. Chunki barcha turistlar goh ichki goh tashqi turist bo'lsin bundan qat'i nazar restoran

xo'jaligiga yoki ovqatlanish tarmog'idan foydalanishga majbur. Aks holda inson ovqatlanish uchun barcha mahsulotlarni o'zlari bilan olib yurishi kerak yoki uy sharoitlarida tayyorlab iste'mol qilishlari kerak bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, har bir sohaning rivojlanishi tepaga qarab intilishi bu faqat davlatimiz va o'zimizning iqtisodiyotimiz yuksladi va rivojlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tuxliev, S. (2008). Turizm asoslari
2. hozir.org
3. <https://uzbektourism.uz/>
4. "Turizm so vkusom uzbekskogo plova". Danilov S. Tashkent.: 2013
5. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi nashri.
"O'zbekistonda turizm. Statistika to'plam." Toshkent-2018